



Interpretation of human and nature in the novel “Bilga Khagan”

Dilnura MADAMINOVA¹, Bekposhsha RAKHIMOVA²

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024

Received in revised form
10 May 2024

Accepted 25 May 2024

Available online

25 June 2024

Keywords:

man and nature,
dialogue,
knowledge hook,
Ishbara,
heroic speech,
father and son,
brothers.

ABSTRACT

Isajan Sultan is a well-known writer who has significantly contributed to the development of Uzbek literature of the 21st century. He has a special place in the rise of the spirituality of the Uzbek people with his unique prose, created with high artistic skill. Isajan Sultan, among the famous writers of Uzbek and world literature, is creating irreplaceable works on the topic of nature. This article explores Isajan Sultan's artistic skill in describing nature and human relations through his novel “Bilga Khagan”.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp599-605>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Bilga xoqon” romanida inson va tabiat talqini

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

inson va tabiat,
dialog,
Bilga xoqon,
Ishbara,
qahramon nutqi,
ota va oʻgʻil,
aka-uka.

Isajon Sulton XXI asr oʻzbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qoʻshayotgan taniqli yozuvchidir. U oʻzining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan oʻzbek xalqi maʼnaviyatining yuksalishida oʻziga xos oʻringa ega. Isajon Sulton oʻzbek va jahon adabiyotining mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratmoqda. Ushbu maqolada Isajon Sultonning tabiat va inson munosabatlarini tasvirlashdagi badiiy mahorati “Bilga xoqon” romani orqali tadqiq etilgan.

¹ Student, Urgench State University. E-mail: madaminovadilnura56@gmail.com.

² Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Urgench State University.

Толкование человека и природы в романе “Бильга Каган”

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

человек и природа,
диалог,
Бильга-Каган,
намек,
речь героя,
отец и сын,
братья и сестры.

Исаджон Султан – известный писатель, внесший большой вклад в развитие узбекской литературы XXI века. Своей уникальной прозой, созданной с высоким художественным мастерством, он занимает особое место в подъеме духовности узбекского народа. Среди известных писателей узбекской и мировой литературы Исаджон Султан создает неповторимые произведения на тему природы. В этой статье исследуется художественное мастерство Исаджона Султана в изображении природы и человеческих отношений в его романе «Бильга Каган».

O'zining bir qator hikoya va qissalari bilan o'quvchilarini topa bilgan, adabiyotshunoslik ilmi sohasida ham muayyan tadqiqotlar olib borayotgan, yangi asr ostonasida adabiyot maydonida shakl va mazmun qamrovi, ma'no-mohiyati bilan badiiy tafakkur olamidaturli xil mavzudagi asarlari bilan o'quvchilar qalbidan joy olib ulgurган ijodkorlardan biri Isajon Sultondir. Istiqlol davri adabiyoti shaxsni o'zlikni anglash yo'lidagi turfa xil holatlarni ramziy, majoziy, tasvir orqali aks ettirmoqda. Istiqlolga erishganimizdan keyin yaratilgan ko'pgina asarlardan oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur bilan yo'g'rilgan inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni asar sujetiga singdirganligini adibning bir qator nasriy asarlari misolida kuzatish mumkin. Bu davr adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham biror qolipga solinmagan, tabiiy ravishda taraqqiy qilayotgan estetik hodisa sifatida namoyon bo'layotganligini ham qayd qilib o'tish lozim. Bu esa badiiy adabiyot uchun hayot haqiqatini ko'rsatish bilan bir qatorda inson ruhiy olamidagi ma'naviy evrilishlarni, turfa xil ziddiyatli holatlarni tasvirlash jarayonida namoyon bo'lmoqda: “Qahramonlar qismati, shaxsiyati, ruhiyati tasviri, tahlilidan ko'pdan-ko'p ramziy-simvolik ishoralar, shtrixlar, kinoya-kesatqlar, yana qandaydir sirli jihatlariga duch kelib xayolga tolasiz, ularning mag'zini chaqishga urinasiz”, deb qayd etganda adabiyotshunos Umarali Normatov haqli edi. Shu boisdan ham, istiqolol adabiyoti xilma-xil, turfa xil ohangdagi badiiy asarlarni maydonga keltirdi. Bu davr adabiyoti tipik odamni emas, balki alohida o'ziga xos va betakror odamni tasvir etmoqda. Istiqlol davri adabiyoti munosabatlar adabiyotiga, tuyg'ular, kechinmalar adabiyotiga aylanib ulgurdi.

Isajon Sulton nasri, jumladan, hikoyalari xususida ham qator tadqiqotlar yaratildi. U. Normatov, A. Rasulov, I. G'afurov, Q. Yo'ldoshev, U. Hamdam, R. Rahmat, H. Zaripov va boshqalarning tadqiqotlarida Isajon Sulton asarlari tahlilga tortiladi. “Isajon Sulton nasri badiiyati” kitobi ana shu tadqiqotlar samarasi o'laroq maydonga keldi. Tadqiqotlarda Isajon Sulton nasrining o'ziga xos xususiyatlari, hikoyalardagi inson obrazining yangicha tamoyillari, modern yo'nalishdagi hikoyalarning o'ziga xos jihatlari xususidagi tadqiqotlari mavzuni to'laroq yoritishga xizmat qiladi.

Isajon Sulton barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmas, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etadi, borliq bu – yaxlitlik, demoqchi bo'ladi. Inson borliqda benihoya nozik a'zo, nozik hujayralardan bino bo'lgan. Samoning

cheksizligi uni qo'rqitadi. Qo'rqinch butun vujudi, hissiyotlari, kechinmalari, fikrlash tarzlarini qamrab oladi. Uni faqat aql va jon muhofaza qiladi. Har qanday balo-qazo, ofatlardan saqlaydi. "Bilga xoqon" romanida ham inson va to'fon, qo'rquv va umid, zarurat va adolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi. Va bunda shoironalik nasr bilan, nasr shoironalik bilan og'ushta keladi. Yozuvchi ko'proq bolalik zehniga mustahkam o'rnashgan taassurotlar, kechinmalar, fikr shu'lalari ustida sermanzara kartinalar chizadi. "Yuraging titradimi, budunim" deb, narsa-ashyolar, kimsalar, voqealar, qismatlarning tanazzullarini qalamga tortib boradi. Uning butun ijodiy ongini "O'lsang boshingni tik tutib o'! Qolsang ko'ksingni kerib-kerib yasha" degan sodda, ammo inson uchun behad qimmatli so'zlar boshqarayotgandek tuyuladi. Ilm-fanga ma'lum narsalar shoirona qobiqqa solib aytilayotganga o'xshaydi.

Tasvir jozibasi Isajon Sulton "Bilga xoqon" romanida juda mohirona beriladi. "Uning teranliklarida hayot va haqiqat jozibasi yotgandagina qudratli badiiyat hodisasiga aylanadi. Isajon Sulton yozuvchi sifatida shu yo'sin va yo'nalishni mahkam tutgan va o'z tanlagan badiiyat yo'lidan shiddat bilan odimlamoqda. Odamlar endilikda hech narsadan hayratlanmay qo'ydi. Ularni hayratga solish juda qiyin. O'yin mashg'ulotlari behad ko'paygan va bu urchigan o'yinlar butun xayollarini band etgan. Ammo kuch va ezgulik barcha zamonlarda ham kechinmalar kalavasi va pildirog'i bo'lmish insonni hanuz hayratga soladi. "Aqlga yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur"... Navoiy yaratilish va yaralish naqshlaridan hayrat inson, ya'ni demak, aql uchun tugamaydi, Masihni ham yuz hayratga solgan narsa shu – Yaratgan va uning yaralmishlari, deydi. Bizga hozir ma'lum bo'lgan narsadan ertaga hayratomuz hodisalar bunyod bo'ladi. Va mangu hayotning charxpalagi hech qachon yangilik va kashfiyotlar qilishdan to'xtamaydi".

Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida yaratilgan obrazlar va ularning ruhiyat tasviri betakror. Yozuvchining yaratgan har bir qahramonidan kitobxon nimanidir olishga va nimadandir voz kechishga harakat qiladi. Chunki, yozuvchi badiiy asoslashni va bu boradagi badiiy detallarni juda o'rinli qo'llaydi. Shu boisdan ham Isajon Sulton asarlarni o'qigan kitobxonda voqealar real hayotda yuz berayotgandek tasavvur qoldiradi. Adib xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga shuningdek, ijtimoiy-estetik didni o'stirishga intilib kelayotgan iste'dodli ijodkorlardan biridir.

Yozuvchi hech qachon bitta holat, bitta masalaga yopishib olmaydi. Uning "Shamolli kecha", "Sog'inch", "Avliyo", "Oydinbuloq" hikoyalari shamol esishi, o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol. Darvoqe, yozuvchining "Boqiy darbadar" romanida bo'ron dahshatli tush va ilohiy aralashuv sifatida ko'rsatilgan edi. "Ozod"da sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi. "Shamolli kecha" hikoyasida shamol real voqelik hamda taqdir shamoli tarzida namoyon bo'ladi. Isajon Sulton barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmas, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etadi, borliq bu – yaxlitlik, demoqchi bo'ladi. Inson borliqda benihoya nozik a'zo, nozik hujayralardan bino bo'lgan. Samoning cheksizligi uni qo'rqitadi. Qo'rqinch butun vujudi, hissiyotlari, kechinmalari, fikrlash tarzlarini qamrab oladi. Uni faqat aql va jon muhofaza qiladi. Har qanday balo-qazo, ofatlardan saqlaydi. "Qo'riqchi", "Shamolli kecha", "Mansub-1984", "Sog'inch", "Ozor", "Farishta", "Xazinabon", "Sofiya", Suvdagi kosa", "Atomlar muzeyida", "Qismat", "Bog'i Eram hikoyalari", barcha qissalari va romanlarida inson va to'fon, qo'rquv va umid, zarurat va adolat badiiy tasvir makonlariga tortiladi.

“Bilga xoqon” romanining I bo‘limi “Kichik yish” deb nomlangan bo‘lib, “Ko‘gman tog‘i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi.”, – deya boshlanadi. “Bilga xoqon” romani tariximiz bilan tanishishda katta ahamiyatga ega. Romandagi tabiat tasvirlari o‘sha davrni tasavvur qilish, kitobxon ko‘z o‘nggida gavdalantirishda asosiy vazifani bajargan. Isajon Sulton tasvir mahorati tufayli ham asar muvaffaqiyatli chiqqan, “Bilga xoqon” romanida go‘yo o‘tmish tiriladi, tasvir mahorati sabab asarda aks etgan voqelik jonlanadi. Ko‘z ilg‘amas olis zamon va makonga sayohat qiladi: “Aytilganidek bo‘ldi. Qozonlar osilib, chaqmoqtosh bilan o‘t yoqildi, qor suvi eritildi, teriga o‘rab qo‘yilgan oq moylar bilan etlar solindi. Qolgan-qutgan tariqlardan so‘k oshi qilindi, so‘ngak pishirildi. Chiqolmaganlarga idish-oyoqqa solib ichkariga eltib berildi, ko‘pchilik tashda, qozon tegrasida yeb olishgach, ulusning qorni to‘yib, bolalar qor o‘ynab qolishdi, xotinlar qo‘nalg‘iga kirishdi. Bir qancha er Ishbara-yu Bulut bilan tashqarida, o‘yinga alahsigan bolalarni kuzatib turishardi.” Aslida, tarixiy mavzudagi asarda kishini o‘ziga jalb etadigan jihati undagi tabiat tasvirining voqealıklar bilan hamohangligidir. Isajon Sulton talqinidagi tabiat tasvirlari o‘tmishni boricha ko‘rsatadi, asar tilining soda va so‘zlarning hamohangligi ham fikrimiz isbotidir:

a) “Yillar o‘taverdi. Yana ko‘klam keldi, tog‘- u tosh, cho‘l uzra o‘t undi, ifor yugurdi. Yilqi shunchalar ortdiki, sanog‘ini bilmas bo‘ldilar. Alplaru botirlar Kichik ko‘l yoqalariga borib-kelib turishardi.”

b) “Kul Tigin tuproqqa berilgach, O‘tukan yishning eng yuksak yeriga, erkli yellar tinmay esib turadigan yalangga qo‘rg‘on tiklanib, yo‘l qilindi, balbali tikildi. Biroq, bular Kul Tigin qozongan zafarlarga ozlik qildi. Kul Tigin yotgan yerga borish yo‘lining boshiga toshdan ikki qo‘chqor boshini qadadilar. Eng uzun, eng enli balbal toshlarini olib kelib tikishgan edi, barchasining sanog‘i bir yuz o‘ttiz oltita bo‘ldi. Uzun yo‘ldan shunday, balballar oralab o‘tib borilardi.”

c) “Shundan keyin kun yetmish kez chiqib-botdi. Oy ikki kez sindi.”

d) “Shu on ko‘kda qanot yoyib uchayotgan bir burgutni ko‘rdi.

U lochin emas, o‘lim qushi edi.

Ana o‘sha qush Ishbarani olib ketdi.

Ishbara ko‘kka uchdi.

Shu kuni-yu undan keyingi kun tinimsiz yomg‘ir yog‘averdi. O‘langlar, o‘tlar-u toshlar ho‘l bo‘ldi. Suvlar toshib-toshib, qo‘y-qo‘zilarni oqizib ketdi.”

Asardan bunday misollarni ko‘p uchratamiz. Ona tabiat. Uning sofliги, tabiiyligini asrab-avaylash va kelajak avlodga butunligicha yetkazish har bir davrda ham muhim bo‘lgan. “Bilga xoqon” romani orqali uzoq o‘tmishdagi insonlarning turmush tarzi bilan tanishar ekanmiz, Ishbara yamtarning murojaati bugungi kunimiz uchun ham dolzarbdır: “Asra sen xoqoningni, yer-suvingni, o‘tlog‘ingni, qiz-kelinlaringni, kuyovlaringni, o‘g‘illaringni! O‘zingni, o‘g‘loningni, ish-kuchingni xoqoningga ber! Och eding, to‘q bo‘lding, chig‘ay eding, but bo‘lding. To‘nsiz eding, to‘nli bo‘lding. Esingni yig‘, qattiq yig‘!” Darhaqiqat, biz bugungi globallashuv zamonida esimizni qattiq yig‘ib tabiatni asrashimiz zarur. Tabiat misoli zargarga o‘xshaydi. Uning bag‘ridan unib chiqqan har bir daraxt, har bir giyoh, hayvonot olami, o‘rmonlar o‘ziga xos bir olamdır. Qisqa qilib aytganda, ona tabiatga mehrli, muhabbatli bo‘laylik. Oilalardan boshlab ekologik tarbiyani kuchaytiraylik. Tabiatni asrab-avaylashimiz, gul-u giyohlar, daraxtzorlarni parvarishlashimiz zarur. Agar biz tabiatni asrasak, bugungi hayotimiz va avlodlar kelajagi uchun shunchalik ko‘p qayg‘urgan bo‘lamiz.

Isajon Sulton asarlarida inson obrazining turli xil talqinlarini kuzatamiz. Adib insonni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson va uning taqdiridagi izohlash mushkul bo'lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan insonlar. Isajon Sulton "Bilga xoqon" romanida ko'plab shaxslarga murojaat qiladi va betakror obrazlar yaratadi. Jumladan, Bilga xoqon, To'nyuquq, Kultegin, Ishbara yamtar, Bulut, El Bo'g'u, Kunsuluv, Eltarish xoqon, Uyuq Tarlaq, Kur Shad va boshqalar. Yozuvchi turklarning o'tmishdagi hayotini juda o'rinli topib tasvirlaydi, Bilga xoqon, To'nyuquq va Kultegin obrazlarining real qiyofasini chizadi: "Bilga xoqon o'zg'ir, alp xoqon, kishilarning ichini o'yib, o'tday yondiradigan so'zlarini so'zlayverdi..", "...o'zi tugal, o'yi teran Bilga xoqon erlarini asradi, o'lmasin dedi...", "Bilga degan birovi xoqon o'tirmish, bilmagani yo'qmish..."

Romandagi To'nyuquq obrazini kuzatar ekanmiz, u yurt tinchligi yo'lida ko'p yaxshi ishlarning boshida turadi. Mamlakat ozodligi, insonlarning erkin hayoti, xoqonlikning tiklanishi va el-yurt tinch yashashiga munosib hissasini qo'shadi. To'nyuquq qo'rqmas bahodir, ulug' yo'lboshchi sifatida gavdalanadi, nuni Inigach ko'l yoqasidagi savash, Yaris dashtida kechgan janglar ta'rifida ko'rishimiz mumkin.

Isajon Sulton qahramon nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, ruhiyati haqida o'quvchiga ko'p narsalarni yetkaza oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, dialoglardagi qahramon nutqi obrazning to'laqonli, jonli chiqishini ta'minlaydi. Misol uchun, rommandagi dialoglarni keltirsak:

– Kishi nima uchun yaraladi? – deb so'radi u. Bir qarasang, pildirab yuradi, yolg'ondan ursang, g'ingshib yig'laydi. Keyin o'sib-uylanib, bola ko'radi. Ota-enasi qariydi, ularni boqaman deb ov qiladi, urushga kiradi. Keyin o'ziyam o'ladi...

– Yana nima qilsin? – deb so'radi Achun Kulug Tirig. – Boshqa qiladigan ishi yo'g'u?

– To'g'ri, – dedi Ishbara. – Yana nimayam qilsin?"

– Bilib qo'y, hoy budun ! Kishi o'g'li o'lgani tug'ilarmish. Bir Tangri yashagay. Bu kun, yo'qsa, erta baribir o'lajaksan! Shunga deyman: qo'rqma! Shoqoldayin ochlikdan o'lma! Sillang qurib cho'zilib yotma! O'lsang boshingni tik tutib o'l! Qolsang ko'ksingni kerib-kerib yasha!

– Yasha! Yasha! – deb hayqirdi budun."

Yozuvchi kitobxon didining yuksakligi, hissiyotlarining ingichkaligi, so'z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg'ularni moddiylashtirish, har bir so'zni joyida qo'llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida so'zlash, chigal o'ylar-u iztiroblar, tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. Isajon Sulton nasrida bugungi davr o'zbek adabiyotidagi izlanishlariga xos bir talay belgilar mujassam. Ularda ijtimoiy-axloqiy taraqqiyot yo'sinlari alohida shaxs ruhiyati orqali tasvirlanadi. Adib olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Shaxsning bir qarashda anglash mushkul bo'lgan murakkab ruhiyati, hissiyoti va ko'ngil talpinishlarini badiiy tadqiq etar ekan, unga alohida betakror qadriyat sifatida qaraydi, ma'naviyatini turli rakurslardan turib kuzatadi. "Bilga xoqon" romani yangilanayotgan milliy tafakkurning hosilasi, o'ziga xos estetik hodisadir. Adib oddiy va jo'n tuyulgan voqealardan ulkan mazmun topishga intiladi. Bu xususiyat uning yirik epik manzaralar tasviriga o'tishiga yo'l ochadi.

“Isajon Sulton ko’proq ota, ona, opa-singil, aka-ukalar, ularning bir-biriga mehr-oqibati to’g’risida yozishni xush ko’radi. Adibning ta’kidlashicha, “Ota naqadar ulug’ zot, ona esa qanchalar muqaddas ekanini” yosh avlod ongiga singdirish har bir qalamkashning muqaddas burchidir. Ularni yozuvchining barcha asarlarida uchratish mumkin. Ayniqsa, “Ota qasidasi”, “Otamga nimadir bo’ldi”, “Shamolli kecha”, “Men, onam va O’rta yer dengizi” hikoyalari, “Munojot”, “Onaizorim” kabi qissalari bu jihatdan xarakterlidir. Aslida ota-onam mavzusining manguligi, ular obrazi yaratilgan asarlarning son-sanog’i yo’qligi barchaga ma’lum. Shuningdek, ota-onam to’g’risida hech yo’q bir satr ko’ngil izhorini bitmagan ijodkor ham uchramaydi. Biroq, Isajon Sulton tasvirlagan ota, xususan, ona obrazi o’ziga xos tabiati va qiyofasi bilan ajralib turadi”. “Bilga xoqon” romanini o’qir ekansiz, oila, ota va o’g’il, aka va uka o’rtasidagi munosabatlar hamma zamonda ham dolzarbligini yo’qotmaganini guvohi bo’lasiz. Asarni o’qish davomida bu kabi misollarni ko’plab uchratishimiz mumkin. Adib bu qahramonlarni shunchaki yaratmagan, balki ularni kashf etgan. Romanning “Ishbara yamtarning o’tmishi” qismida “Toy ot bo’lsa, ot tin olur, o’g’il er yetilsa otasi tin olur” maqoli qo’llanilgan. Ishbara botir Alp Qora Bo’g’uning o’g’li edi. Qora Bo’g’u uzun bo’yli, ko’ngli qattiq kishi edi. Ishbarani suyagi otasiga tortadi. O’n ikki yoshida otasiga tenglashib, yonida yuradi. Qora Bo’g’u “Toy ot bo’lsa, ot tin olur, o’g’il er etilsa, otasi tin olur”, - deb, o’g’liga bori bilganlarini o’rgatadi. O’tmishga, bobo-momolarimizning hayotiga nazar tashlasak, oilada o’g’il bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Bolaligidan oilaning suyanchi, kattasi, opa-singillarining himoyachisi bo’lishini, qolaversa, Vatanning tayanchi ekanini uqtirib, shu asosda tarbiya berilgan. El Bo’g’u ham o’g’lini xuddi shunday maqsadda tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasi hamma davrlar, har qanday jamiyat uchun ham eng ustuvor vazifalardan biri bo’lib kelgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, badiiy asarning salmoqdorligi, voqelik mohiyatiga chuqurroq kirib borish, inson ichki olamini anglashga intilish Isajon Sulton asarlarining asosiy jihatlaridan biridir. U inson qadri, azaliy qadriyatlar, odamlararo munosabat izlarini turfa taqdirlar ko’nglidan izladi. Bu borada muallifning badiiy mahorati “Bilga xoqon” romanida yaqqol sezilib turadi. Isajon Sulton yaratgan o’tmish dunyoning oddiy odamlariga xos favqulodda jihatlar kitobxon qalbiga juda-juda yaqinligi bilan diqqatga loyiqdir. Isajon Sulton inson xarakterini chuqur anglab tasvirlashda bugungi kunning eng ilg’or adiblaridan biridir. “Bilga xoqon” va boshqa asarlarida hozirgi nasrimizda kechayotgan ijodiy izlanishlar o’z ifodasini topgan. Bu holatni asarlarining mavzu va uslubiy-shakliy jihatdan rang-barangligida, epik bayonning ta’sirchanligi va qahramonlar ichki olamining teran tasvirida ko’ramiz. Bu qahramonlar turli yosh va kasbga mansub bo’lishsa ham ularning qismati Vatan taqdiri bilan chambarchas bog’liq bo’lib, har birining o’z qarashi, individual xususiyatlari, milliy koloritni aks ettiruvchi betakror jihatlar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdurahmonov G’. Adabiy asar tilini o’rganish haqida.// O’zbek tili o’qitish metodikasi. – Toshkent. Fan. 1966.
2. Badiiyat ufqlari. – Toshkent: Universitet, 2008.
3. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 200 b.
4. Isajon Sulton.”Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent: Factor books nashriyoti, 2022.

5. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/to'plab nashrga tayyorlovchilar: G.Sattorova, M.Qo'chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
6. N.Rahmonov. Mangu bitiktoshlar ilhomi: <https://uza.uz/posts/25169>.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Risola. –T., Ma'naviyat, 2000. -112 bet.
8. Q.Yo'ldoshev. So'z yolqini. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. –B. 265.
9. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2007. – B.305.